



ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI HUDUDLAR AHOLISI FAROVONLIGINING OSHISHI VA IQTISODIY O'SISHNING OMILI SIFATIDA

Abdirashidov Ashirali,

"Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasida i.f.n., dotsenti

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.

E-mail: ashirali.abdirashidov@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7737-0155

THE MARKET OF CONSUMER GOODS AS A FACTOR OF INCREASE IN THE WELFARE OF THE POPULATION OF THE REGIONS AND ECONOMIC GROWTH

Abdirashidov Ashirali,

Candidate of economics, Associate professor,

International Islamic Academy of Uzbekistan,

"Islamic Economics and Finance" Department

Tashkent, Uzbekistan. Email: ashirali.abdirashidov@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7737-0155

JEL Classification: H41, P23, P24

Annotatsiya. Maqolada hududiy iste'mol tovarlar bozorlarining aholi farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati hamda iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinib, bunda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda mavjud hududiy muammolar bayon etilgan. Shuningdek, iste'mol bozorlarining holati bilan aholining umumiy va real daromadlarining o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jihatlari ham ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, iste'mol bozorlarining rivojlanishi hududlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi ham tadqiq etilgan. Xususan, 2000-2022 yillar davomida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlardagi farq tahlil qilinib, uning sabablari, ta'sir etgan omillar ochib berilgan. Mazkur davr mobaynida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy va real daromadlarning yillar kesimida o'zgarish

dinamikasi ilmiy dalillar yordamida izohlangan bo'lib, ushbu maqolada ko'tarilgan masalalarning dolzarbligini namoyon qilgan

Abstract. The article analyzes the importance of regional consumer goods markets in ensuring the well-being of the population and their impact on economic growth, and describes existing regional problems in ensuring economic stability. Aspects of interrelation between the state of consumer markets and the growth of general and real incomes of the population were also considered. In addition, it has been studied that the development of consumer markets has a positive effect on the development of the regional economy. In particular, during the years 2000-2022, the difference in total income per capita by region was analyzed, its causes and influencing factors were revealed. During this period, the dynamics

of changes in general and real per capita incomes over the years were explained with the help of scientific evidence, which demonstrated the relevance of the issues raised in this article.

Kalit so'zlar: *iste'mol, iste'mol tovarlari bozori, aholi farovonligi, iqtisodiy o'sish, hudud, iste'mol tovarlari.*

Keywords: *consumption, consumer goods market, population welfare, economic growth, territory, consumer goods.*

Kirish. O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, boshqaruv tizimini isloh qilish davri, hududlarning istiqbolli rivojlanishi muammolari va iqtisodiyoti diversifikatsiyalanadigan mintaqaviy iqtisodiyotning dolzarbligiga bog'liq murakkab rivojlanish muammolarini hal qilishni ta'minlashi bilan tavsiflanadi. Buning sababi, mamlakat iqtisodiyotining sezilarli o'sishini ta'minlagan iqtisodiy o'sishning an'anaviy omillari eskirdi va bugungi kunda rivojlanishning yangi manbalarini topish masalalari kun tartibiga aylandi.

Bundan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, hududlar iqtisodiyotining lokomotivi rolini davom ettira olmaydigan asosiy faoliyat turlarining ilgari belgilangan ustuvor vazifalarni qayta ko'rib chiqish lozimligi, mintaqaning yangi strategik tanlovini asoslash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan iqtisodiy rivojlanish qutblarini aniqlash muammosi paydo bo'ladi. Mintaqaviy darajadagi boshqaruv amaliyoti tahlili hududlardagi ustuvor faoliyat tarkibi an'anaviy ravishda amalga oshiriladigan mavjud sohalar va faoliyat turlariga yo'naltirilgan eski siyosiy va iqtisodiy sharoitda shakllangan hududiy mehnat taqsimoti bilan bog'langanligini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki,

iqtisodiyotning bunday tuzilishi juda inert bo'lib, har doim ham rivojlanishning zamonaviy bosqichiga javob bera olmaydi, chunki u ma'muriy-rejali iqtisodiy tizimda tarmoqli boshqaruv ustuvorligi tamoyillariga asoslanib, mintaqaviy iqtisodiyot mustaqil xo'jalik subyekti sifatida muhim rol o'ynamasdan rivojlangan. Mintaqaviy darajadagi boshqaruv sohaviy va hududiy manfaatlarni muvofiqlashtirishga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning keng qamrovli rejasini ishlab chiqish darajasiga tushirildi, lekin bu mintaqalarda yashovchi aholi ehtiyojlarni inobatga olmagan tarmoqli ishlanmalarning mexanik to'plami bo'lib, mazkur holatdagi muammolarni tadqiq etishni talab qiladi.

Material va metod. Mazkur maqolani yozishda iste'mol tovarlar bozori hududlar aholisi farovonligining oshishi va iqtisodiy o'sishning o'zaro ta'sirlari nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etildi, shuningdek, mavzuga doir statistika ma'lumotlarini tahlil qilish asosida taklif va tavsiyalar oldinga surilib, ilmiy abstraksiya, mantiqiy ketma-ketlik va qiyosiy tahlil kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Iste'mol tovarlar bozorni iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil etishga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda mualliflar tushunchaga turlicha ta'rif berishgan. Ayrimlari iste'mol bozoriga minimum xarajatlar sharoitida tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi asosida aholini tovarlar bilan ta'minlovchi hududiy muhit [9] sifatida ta'rif berishsa, boshqalari esa iste'mol bozorini tadbirkorlik faoliyati natijasida yaratilgan tovar va xizmatlarning moddiylashgan YaMMdagi ulushi iste'moli uchun sotiladigan yoki sotib olinadigan bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi [8] tarzida e'tirof etishadi. F.Kotler ushbu sektorni shaxsiy iste'mol uchun tovar va xizmatlar xarid

qilayotgan alohida shaxslar va uy xo'jaliklari sifatida talqin etgan va asosiy e'tiborni xaridorlarga qaratgan[3]. Ushbu ta'rif nomukammal va bir tomonlama hisoblanadi. B.A.Rayzberg iste'mol bozorini oldi sotdi munosabatlari asosidagi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi o'zaro ta'sir sifatida ko'rib chiqqan[4]. Bizning fikrimizcha, bu ta'rif ham iste'mol bozorining aniq mohiyati va asosiy maqsadini ochib bermaydi. M.A.Nikolayevaning ta'riflari esa nisbatan mukammal, keng yoritilgan. Uning fikricha, iste'mol bozori bu xo'jalik subyektlari ijro etuvchilar, iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, shuningdek, ushbu tovarlarni shaxsiy iste'mol maqsadida sotib oluvchi yakka iste'molchilar majmuidir[5].

A.S.Novoselov fikriga ko'ra, iste'mol bozori uch yirik segmentdan iborat: oziq-ovqat bozori, nooziq-ovqat bozori va xizmatlar bozori. Ular oldi-sotdi munosabatlari asosida o'zaro bir biriga ta'sir ko'rsatadi hamda aholi ehtiyojlarini qondiradi. Shu orqali hudud iqtisodiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi[6]. I.K.Belyayevskiy iste'mol bozorining tarkibiy qismiga oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari bozori va ommaviy xizmatlar bozorini kiritadi[7].

Yuqorida keltirilgan ta'riflar ushbu iqtisodiy kategorianing turli jihatlarini aks ettirgan holda o'zaro bir birini to'ldirib kelmoqda. Shunday qilib, mualliflarning fikrlarini baholagan holda hududiy iste'mol tovarlar bozorini aholining ehtiyojlarini qondirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun qulay tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni yaxshilash uchun oldi-sotdi jarayonlarida tashkil etilgan (vujudga kelgan) tovar-pul va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida talqin qilish mumkin. Iste'mol bozorining tashkil etilishi va rivojlanishining

nazariy jihatlarini o'rganish maqsadlaridan biri iste'mol bozorining tuzilishi, roli va uning ayrim elementlarining mohiyatini baholashdan iborat.

Natijalar. Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada chuqurlashtirilishi va iqtisodiyot erkinlashtirilishining kengayishi hududiy iste'mol tovarlari bozorining turli darajada va holatda shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyat hayoti uchun zarur mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim masala va hududlardagi aholi farovonligining asosi hisoblanadi. Shu bois bozorni yanada samarali tashkillashtirish va uning rivojlanishi bo'yicha muammolarga jiddiy yondashuv talab etiladi.

Hududiy iste'mol tovarlari bozorining zamonaviy talablarga javob beradigan barqaror rivojlanishi uchun davlat huquqiy organ va muassasalarining turli xil o'zgaruvchan sharoitlarga ega barqaror va moslashuvchan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va nazorat qiluvchi asoslarga ega bo'lishi lozim. Barqaror rivojlanish mexanizmining ishlashi uchun iste'molchilar huquqini himoya qilish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni qo'llab qo'vvatlash davlat qo'mitasi kabi tashkilotlar faol harakatda bo'lishlari kerak.

Ichki iste'mol tovarlari bozorini mahsulotlar bilan to'yintirishda ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan turli xil imtiyozlar va ko'maklar berilishi asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu tadbirlar o'z navbatida tovarlarning yangidan yangi turlarini ko'paytirishga, ichki, tarmoqlararo, butun tarmoq va xalq xo'jaligi tarkibining qaytada takomillashib borishiga imkoniyat tug'diradi, ishlab chiqariladigan tovarlar samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.


Kishilarning faoliyati daromad topish manfaati zahirida vujudga keladi. Bozor qoidasiga binoan subyektlarning resurslar sarfi natijalariga mos ravishda daromadga ega bo'lishlari obyektiv voqeylikka aylanishi kerak. Zero, iqtisodiy munosabatlarga kirishishning bosh maqsadini daromadga ega bo'lish va o'z iste'molini maksimalashtirish tashkil etadi. Daromad topishga bo'lgan qiziqish iqtisodiy erkinlik bilan chambarchas bog'liq. Erkinlik iqtisodiy o'sishga sharoit yaratadi, bu esa farovonlikni oshirib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Aholining daromadiga ishlab chiqarishda asos solinsada, u bozorda yuzaga chiqadi. Chunki bozor qoidalari resurslar sarfi samarasiga ko'ra daromatlarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Shunday ekan, aholi turmush darajasining yuksalishi bozor qoidalari orqali topiladigan daromatlarga bog'liq. Shuning uchun bozor tizimidagi daromadlarning

manbalari, ularning tarkibiy tuzilishi, ularga ta'sir etuvchi omillar, daromadlarning shakllanishi, turlanishi va tabaqalanishi masalalarini tadqiq etish o'ta dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida ahamiyat kasb etadi.

Aholi daromadlarining ortishi iste'mol bozori ta'minlanishining yaxshilanishi bilan birga kechdi. Mahalliy tovar ishlab chiqarish ko'lamining kengayib borishi bozorda talab va taklifning tenglashuviga sezilarli ta'sir qilmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromad respublika bo'yicha notekisligi saqlanib qolmoqda. Xususan, 2022-yilda Toshkent shahri va Navoiy viloyati o'rtacha respublika darajasiga indekslanganda 2,107, 1,540 (2000-yil 2.533, 1.221) ko'rsatkich bilan yuqori bo'lib turgani holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Farg'ona viloyati mos ko'rsatkich 0.744, 0.764 (2000-yil 0.629, 1.094) bilan orqada qolmoqda.



1-rasm. Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromatlardagi farq¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida aholi daromadlarining o'zaro yaqinlashayotganligini ham ko'rish mumkin. Jumladan, 2000-yil hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori va eng past ko'rsatkichlaridagi farq 4.5 martani tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2005, 2009 yillarda 6.2 martagacha yanada oshdi. 2022-yilga kelib o'rganilayotgan ko'rsatkich 2.8 martaga tushdi.


Aholi daromadlarining oshib, tarkiban takomillashib borishi dastavval aholi iste'molini to'la to'kis qondirilishiga zamin yaratadi[15]. Daromadlar darajasidagi tafovutlar ijtimoiy mansublikka va ko'p ukladli iqtisodiyot tarkibining mahsuli hisoblanadi.

Aholi daromadlarining farqlanishi hududlarning iqtisodiy taraqqiyoti darajasidagi farq va u yerdagi ishlab chiqarishning o'ziga xos tarkibi bilan belgilanadi. Agar hududda qishloq xo'jaligi tarmog'i ustuvor bo'lib, sanoati rivojlanmagan bo'lsa, aholi tez ko'paysa, daromadlar kam bo'ladi. Sanoati rivojlangan va aholi sekin o'sadigan hududlarda, aksincha daromad yuqori bo'ladi.

Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi ma'lumotlariga ko'ra so'nggi yillarda respublika bo'yicha o'rtacha nominal pul daromadlari oshib borgan. Pul daromadlarining o'sishi asosan ish haqi va tadbirkorlik faoliyatlaridan daromadlarning ko'payishi hisobiga ta'minlangan[14].

Shu bilan birga, tadqiq etilayotgani yillar davomida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari ham o'sish tendensiyalariga ega bo'ldi. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan dasturiy chora-tadbirlar, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash xodimlarining mehnatini rag'batlantirish va ularga ish haqi to'lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etilishi, kichik biznesning rivojlanishi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlarining o'sishidagi asosiy omillar bo'ldi.

Aholining pul xarajatlari tarkibida tovarlar sotib olish va xizmatlar iste'moli xarajatlari hamda jamg'arish ulushlarining ortishi, shuning bilan birga majburiy to'lovlar va badallar xarajatlarining ham sezilarli oshganligi kuzatildi.



2-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy va real daromadlarning yillar kesimida o'zgarish dinamikasi¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tadqiq etilayotgan yillar davomida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy va real daromadlar o'rtasidagi tafovut 2000-2002 yillarda o'rtacha 31 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-2022 yillarga kelib oraliq diapazon 2,5 barobarga qisqarib o'rtacha 12 foizga yetgan. Mazkur holat respublikada aholi farovonligining yillar kesimida oshib borayotganligi hamda iqtisodiyotning rivojlanishda barqarorlikka intilib borayotganligini bildiradi.

Jumladan, respublikada mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori yillar mobaynida oshirib borilgan. Xususan, oxirgi o'zgarish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-196-son Farmoniga binoan 2023-yil 1-dekabrda boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida: mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oyiga 1 050 000 so'm etib belgilandi.

Ish haqi darajasi bo'yicha tarmoqlararo tabaqalashuv bilan birga tarmoqlarning ichida ham tabaqalashuv kuzatilmoqda. Eng kichik tabaqalashuv darajasi davlat sohasida band bo'lganlar soni yuqori bo'lgan tarmoqlarda kuzatildi[11]. Tabaqalanishning eng yuqori darajasi nodavlat xo'jalik yurtiuvchilar mulchiligining ulushi nisbatan yuqori bo'lgan savdo, umumovqatlanish va transport kabi tarmoqlarga tegishli bo'ldi.

Munozara. Aholi turmush darajasini oshirishda va ijtimoiy kafolatni ta'minlashda ish haqining eng kam miqdori muhim o'rin tutadi. Agar ushbu ko'rsatkich past bo'lsa, mutanosib ravishda shaxsiy daromadlar darajasi ham nisbatan past bo'ladi, aholining to'lov qobiliyati kamayib, aholining eng zaruriy hayotiy ehtiyojlari qondirilmaydi va belgilangan ish haqi kishilarni unumli

mehnatga rag'batlantira olmaydi[10]. Bozor munosabatlari rivojlangan sari eng kam ish haqi miqdori mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va aholining turmush tarzi bilan belgilanadigan iste'mol savati asosida aniqlanishi lozim.

Ish haqi darajasi bo'yicha hududlararo tabaqalanishuvning kuchayishi bir qator sabab va omillar bilan izohlanadi, ularning orasida eng asosiylari quyidagilar hisoblanadi: hududlardagi iqtisodiy salohiyatning turlichaligi; iqtisodiyot tarkibida samarasiz, raqobatbardosh va rentabelli bo'lmagan korxonalarining mavjudligi; yangi turdagi iqtisodiy munosabatlarga aholining moslashish imkoniyatlarining pastligi; ayrim hududlarda ro'y berayotgan ekologik va texnologik o'zgarishlar va boshqalar[12].

Uy xo'jaliklari daromadlari tarkibida ijtimoiy transferlar ham o'z ulushiga ega bo'lib, u kam ta'minlangan oilalar va ko'p farzandli oilalarga berilgan moddiy yordam, farzandi ko'proq nochor oilalar, kam ta'minlangan oilalar va 2 yoshgacha bola tarbiyasi uchun ishlamayotgan onalardan tashkil topgan aholi qatlamiga berilayotgan davlat ijtimoiy yordami sifatida shakllantirilgan[13].

Viloyatda iste'mol xarajatlari tarkibida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari va xizmatlar uchun xarajatlar kamaygan holda uy xo'jaliklarining nooziq-ovqat tovarlariga, shuningdek uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga qilgan xarajatlari ko'paymoqda. Bu esa aholi iste'molidagi ijobiy o'zgarishlardan biri hisoblanadi.

Bunday ijobiy tendensiya aholiga ajratilayotgan iste'mol kreditlari, shu jumladan uzoq muddatda foydalaniladigan tovarlarni sotib olish uchun ajratilayotgan

kreditlar hisobiga saqlanib qolmoqda.

Keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda hududlarda iste'mol tovarlari bozorining rivojlanishi quyidagilarga olib kelishini ta'kidlash mumkin:

Birinchidan, aholining yuqori darajada ish bilan bandligini ta'minlab, ular daromadlarining ortishiga olib keladi.

Ikkinchidan, korxonalar o'z ishlab chiqargan mahsulotlarining realizatsiyasini va foydasini maksimalashtirishga erishadi.

Birinchi va ikkinchi holatlar natijasida hududning daromad bazasi kengayadi.

Hududning daromad bazasi bozor infratuzilmasi rivojlanishi uchun budjet xarajatlari hamda tovar va xizmatlar iste'molidagi talabning oshishiga sabab bo'ladi va investitsiyani rag'batlantiradi.

Uchinchidan, bevosita investitsiyaga talabning oshishiga olib keladi.

Investitsiyaga rag'bat bir tomondan to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarishning rivojlanishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi investorlarni ko'paytirib, yangi ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tadbirkorlarning biznes rejasini takomillashtirishiga va bozor infratuzilmasining takomillashuviga olib keladi, shuningdek, hududda qulay iqtisodiy muhit barpo etadi va buning natijasida ishlab chiqarish rivojlanadi.

Hududlarda iste'mol tovarlar bozorining rivojlanishi va aholi farovonligining barqaror oshib borishini ta'minlash uchun respublika miqyosida qisqa, o'rta va uzoq muddatli iqtisodiy siyosat olib borilishi lozim. Olib borilayotgan tadbirlarning nisbatan muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizligiga qarab zarur tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritilishi kutilayotgan natijalarning yanada samaraliroq bo'lishiga

xizmat qiladi.

Xulosa. Iste'mol tovarlari bozorining hududlarda rivojlanishi aholining yuqori darajada ish bilan bandligini ta'minlab, ular daromadlarining ortishiga, korxonalar o'z ishlab chiqargan mahsulotlarining realizatsiyasini ko'paytirish orqali foydasini maksimalashtirishiga, hududning daromad bazasi kengayishiga va bevosita investitsiyaga talabning oshishiga olib keladi.

Hududiy iste'mol tovarlari bozorining istiqbolda majmuaviy taraqqiy etishi uchun uning dinamik o'sish salohiyati, aholi farovonligini oshirish, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va tovarlar raqobatbardoshligini yanada takomillashtirish kerak. Bularga erishish uchun tovarlar raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ya'ni o'rtacha narxlar tizimidagi nomutunosiblikni bartaraf qilish, energiyatalab ishlab chiqarishni kamaytirish, davlat, hududiy hokimiyat organlari va uy xo'jaliklarining xo'jalik subyektlariga berayotgan subsidiyalarini qisqartirish va ichki talab hajmini kengaytirishga yordam beradigan shart-sharoitlar hozirlash kerak bo'ladi..

Manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirish hisobiga qashshoqlik darajasini va aholi daromadlari tabaqalashuvini qisqartirish uchun ishlab chiqarishni o'stirish bilan bog'liq mehnatga haq to'lashni ko'paytirish, aholining mehnatda bandligi va samaradorligini oshirish, investitsiyalarning ichki moliyaviy manbalarini daromadlar o'sishi, real sektorda to'plangan jamg'armalar, aholi qo'lida to'plangan jamg'armalar hisobiga kengaytirish va iste'mol tovarlari bozoriga bevosita xorijiy investitsiyalar qo'yilishi uchun qulay sharoitlar hozirlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rolini oshirish orqali

bozordagi tovarlar, xizmatlar va kapitallar raqobatdoshligini rivojlantirish kabi bir qator yirik ijtimoiy, makroiqtisodiy, investitsiyaviy,

institutsional, moliyaviy va boshqa masalalarni yechish darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdirashidov, A. (2015). Transformation to Eco-Friendly Consumer Goods Production and Sustainable Growth: A Case of Uzbekistan. *Visegrad Journal on Bioeconomy and Sustainable Development*, 4(1), 24-26.
2. Horská, E., Pulatov, A., & Abdirashidov, A. (2015). Consumption Towards Environmentally Friendly Consumer Behaviour: The Case of Plastic Bags. *Visegrad Journal on Bioeconomy and Sustainable Development*, 4(2), 42-45.
3. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс /Ф. Котлер. М.: Издательский дом «Вильямс», 2003. – 356 с.
4. Курс экономики /под ред. Б. А. Райзберга. – М.: ИНФРА-М, 1997. – 101 с.
5. Николаева М.А. Маркетинг товаров и услуг / М.А. Николаева – М.: Издательский дом «Деловая литература», 2001. – 57 с.
6. Новоселов А.С. Региональный потребительский рынок. Проблемы теории и практики / А.С. Новоселов; отв. ред. В.В. Кулешов. – Новосибирск: Сибирское соглашение, 2002. – 38 с.
7. Статистика рынка товаров и услуг. – 2-е изд. перераб. и доп. / Под ред. И.К. Беляевского. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 235 с.
8. Шабунина, И.М. Теория и практика региональной экономики /И. М. Шабунина, О. А. Ломовцева, М.Ю.Трубиц. – Волгоград: Изд-во Волгоград Гос. ун-та, 1996. – 65 с.
9. Шнипер Р.И. Экономические проблемы формирования региональных рынков /Р.И.Шнипер. – Новосибирск: ИЭиОПП СО РАН, 1990. – 264 с.
10. Astanakulov O. T. et al. Real options as a financial instrument to evaluate a project with a high degree of uncertainty: the specifics of application //Економічний часопис-XXI. – 2019. – Т. 179. – №. 9-10. – С. 105-114.
11. Astanakulov O. T. et al. Providing Innovative Processes in the Economic Development of the Russian Regions //Space and Culture, India. – 2019. – Т. 7. – №. 2. – С. 125-142.
12. Асатуллаев Х. С., Астанакулов О. Т., Собиров З. А. Инновационная активность в условиях конкуренции: сущность и анализ //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2016. – №. 10-1. – С. 172-174.
13. Sheina E. G. et al. The relationship of financial planning and budgeting in



turnover-oriented enterprises //Academy of Entrepreneurship Journal. – 2019. – Т. 25. – №. 4. – С. 1-9.

14. Шейна Е. Г., Астанакулов О. Т. Совершенствование трансфертного ценообразования с целью минимизации налоговых и финансовых рисков предприятий //Известия высших учебных заведений. Северо-Кавказский регион. Общественные науки. – 2019. – №. 3 (203). – С. 93-98.

15. Balbaa M. E. Fusion Unleashed: A Comprehensive Analysis of Egypt's Digital Potential, the Growing Digital Economy, and its Socio-Economic Implications.